

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

**Rashidova Sh.F.**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti  
3-bosqich talabasi

**Xakimbayeva O.K.**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi sinonim, antonim va paronim so'zlarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada so'zlarning tuzilishi, ma'nosi va talaffuzi tahlil qilinadi. Shuningdek, ikki til o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, ingliz tili, sinonim, antonim, paronim, homonyms, homophones, leksik tizim.

Zamonaviy tilshunoslikda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasnifi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Til – inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi bo'lib, undagi har bir birlik ma'lum ma'no yukini tashiydi. So'zlarning o'zaro ma'noviy va shakliy munosabatlarini o'rganish esa tilning ichki tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sinonimiya, antonimiya, omonimiya va paronimiya hodisalari til boyligini namoyon etuvchi muhim leksik qatlam hisoblanadi.

Mazkur hodisalarni o'rganish nutqni yanada aniq, ravon va ta'sirchan qilish bilan birga, so'z boyligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillari misolida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari keng tahlil qilinadi.

Sinonimlar – ma'nodosh so'zlar bo'lib, yozilishi va talaffuzi turlicha, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin yoki umumiy bo'lgan leksik birliklardir. Sinonimlar tilning boyligini ko'rsatadi va nutqda takrorning oldini olish, fikrni nozik ifodalash imkonini beradi. Masalan: katta – ulkan – bahaybat, chiroyli – go'zal – husnli, yuz – aft – bashara.

Bu so'zlar o'zaro ma'nodosh bo'lsa-da, ularning uslubiy bo'yoqdorligi farqlanadi. Masalan: *yuz* – neytral, adabiy nutqda keng qo'llanadi; *aft* – salbiy ohangga ega; *bashara* – qo'pol va keskin salbiy ma'noni bildiradi.

Demak, sinonimlar nafaqat ma'no yaqinligi, balki emotsional-ekspressiv rang-barangligi bilan ham ajralib turadi. Ingliz tilida ham sinonimlar keng qo'llaniladi va ular *synonyms* deb ataladi: *begin* – *start*, *explain* – *clarify*, *approximately* – *about*.

Sinonimlarning to'g'ri qo'llanishi nutq madaniyatining muhim ko'rsatkichidir.

Ba'zan sinonim so'zlarni chalkashtirib yuborish talaba va o'quvchilar orasida ko'plab uchrab turuvchi omil hisoblanadi. Bu esa uslubiy xatoliklarni keltirib chiqarishi ya'ni: fikrning noaniqligiga yoki mantiqsizligiga olib kelishi mumkin. Sinonimlar har doim ham bir birining o'rnini to'liq bosavermaydi. Chunki yuqorida takidlab o'tganimizdek so'zlarning uslubiy bo'yoqdorligi turli xil bo'lishi, so'zning ma'nosi to'g'ri kelgani bilan gapning umumiy mazmuniga tog'ri kelmasligi mumkin. Quyidagi misollar orqali ko'rib chiqishimiz mumkin.

Xato: *Havo juda chiroyli.* (*Havo go'zal bo'lmaydi.*)

To'g'ri: *Havo juda yoqimli/musaffo.*

Shuning uchun sinonim, antonim va paronimlarni o'rganishda nafaqat tarjima, balki kontekst, uslub va grammatik shakl ham muhim ahamiyatga ega.

Antonimlar – ma'nosi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan so'zlardir. Ular fikrni taqqoslash, zidlik orqali ta'sirchanlikni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Masalan: hayot – mamot, yaxshilik – yovuzlik, katta – kichik.

Badiiy adabiyotda antonimlar tazod san'ati asosida keng qo'llanadi. Bu usul orqali muallif fikrni yanada ta'sirchan va obrazli ifodalaydi.

Masalan, Shavkat Rahmon she'rlarida zidlik orqali chuqur ma'no ifodalanadi: "Halok bo'lgan botirlar jangda, Tirik qolgan faqat qo'rqqoqlar..."

Bu misolda "halok bo'lgan" va "tirik qolgan" birliklari o'rtasidagi qarama-qarshilik fikrning kuchini oshiradi.

Ingliz tilida antonimlar *antonyms* deb yuritiladi. Masalan: clever – stupid, cruel – kind, friend – enemy.

Omonimlar – shakldosh so'zlar bo'lib, yozilishi va talaffuzi bir xil, ammo ma'nosi turlicha bo'lgan birliklardir. Masalan: yoz (fasl) – yoz (yozmoq), tut (meva) – tut (ushlamoq).

Omonimlar nutqda kontekst orqali farqlanadi. Ya'ni, gap ichidagi ma'no ularning qaysi ma'noda qo'llanilganini aniqlab beradi.

Ingliz tilida bu hodisa kengroq talqin qilinadi va *homonyms* tushunchasi ostida birlashadi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

Homonyms – yozilishi va talaffuzi bir xil: bat (ko'rshapalak) – bat (beysbol tayoqchasi). Homophones – talaffuzi bir xil, yozilishi har xil: sea – see, flower – flour.

Homographs – yozilishi bir xil, talaffuzi turlicha (ba'zi hollarda): lead (boshqarmoq) – lead (qo'rg'oshin).

Paronimlar – talaffuzi o'xshash, ammo ma'nosi turlicha bo'lgan so'zlardir. Ular ko'pincha nutqda chalkashliklarga sabab bo'ladi, shuning uchun ularni to'g'ri qo'llash muhimdir. Masalan: asr – asir, dars – darz, abzal – afzal, amr – amir.

Paronimlar ayniqsa yozma nutqda xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ularni farqlash til madaniyatining muhim jihatlaridan biridir.

Ingliz tilida paronimlar *paronyms* deb ataladi: affect – effect, collision – collusion, alternately – alternatively.

Paronimlar nutqda aniqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni to'g'ri qo'llash til egasining lingvistik kompetensiyasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari – sinonim, antonim, omonim va paronimlar – tilning leksik boyligini tashkil etuvchi muhim unsurlardir. Ularni o'rganish orqali nafaqat tilning ichki tuzilishi, balki nutq madaniyati ham rivojlanadi.

O'zbek va ingliz tillarida ushbu hodisalarning mavjudligi va faol qo'llanishi har ikki tilning boy va rivojlangan tizimga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu birliklardan to'g'ri foydalanish esa nutqni aniq, ifodali va ta'sirchan qilishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004. 46-b.
  2. G'apurov M. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent, Turon-iqbol, 2008. 74-b.
  3. <https://unacademy.com/content/nda/study-material/english/paronyms/>
  4. <https://www.merriam-webster.com/grammar/homophones-vs-homographs-vs-homonyms>
-